

XORIJIY MANBALARDA XIVA XONLIGI IJTIMOIIY HAYOTINING YORITILISHI

Xudoyberganova Durdigul

UrDU magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xiva xonligi ijtimoiy hayoti tarixining XIX-XX asr boshlaridagi xorijiy tadqiqotchilar asarlarida yoritilishi muhokama qilinadi va tahlil qilinadi.*

Kalit soʻzlar: *N. Muravyev, X. Vamberi, Xiva xonligi, qullar, M. Holdsvort*

Аннотация: *В данной статье рассматривается и анализируется освещение истории общественной жизни Хивинского ханства в трудах зарубежных исследователей XIX-начала XX веков.*

Ключевые слова: *Н. Муравьев, Х. Вамбери, Хивинское ханство, рабы, М. Холдсворт.*

Abstract: *This article discusses and analyzes the coverage of the history of the social life of the Khiva Khanate in the works of foreign researchers in the XIX-early XX centuries.*

Key words: *N. Murav'yev, H. Vamberi, Khiva Khanate, slaves, M. Holdsworth*

XIX asr - XX asrning boshlarida Oʻrta Osiyoga, jumladan Xiva xonligiga turli yillarda kelgan sayyohlar, olimlar, harbiylar va boshqa davlat vakillarining yozgan asarlari, mamlakatning oʻsha davr tarixi, xoʻjaligi, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini oʻrganishda asosiy manba boʻlib xizmat qiladi

Bular qatorida N.Muravʻyov, M.Ivanin, L.Sobolev, L.Kostenko, A.Kun, N.Veselovskiy, G.Danilevskiy, D.Gladishev, X.Vamberi, Grishfelʼd kabi olim va sayyohlarning esdalik va asarlarini tilga olish mumkin. Yuqorida nomlari keltirilgan mualliflarning asarlarida XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlaridagi madaniy muhitning asosi boʻlgan kitobat va kutubxona ishiga ijtimoiy-siyosiy hayotdagi oʻzgarishlarning taʼsiri boʻlganligi haqida maʼlumotlar keltiriladi. Xiva tarixchilari Munis, Ogahiy va Bayoniy asarlarida hamda Xiva xonlari arxiv hujjatlaridagi maʼlumotlar Xiva xoni Muhammad Rahimxon I (1806-1825) davridayoq davlat boshqaruvining maʼmuriy-hududiy, moliyaviy, harbiy va diniy-maʼrifiy negizlari yaratilganligini, bu esa oʻz navbatida, Xorazmda davlatchilik rivojida muhim bosqich boʻlganini tasdiqlaydi.

Oʻrta Osiyo, jumladan, Xiva xonligi tarixi boʻyicha yuqorida nomlari tilga olingan olimlardan tashqari chet ellik olimlarning bir qancha asarlarini ham tilga olish mumkin. Ular qatoriga jurnalist Mak-Gaxan, Yu.Bregelʼ, M.Olvort, S.Bekker, J.Uiler kabi olimlarning mavzuga oid asarlarini koʻrsatish mumkin.

V.A. Girshfeld va M.N. Galkinlar: «Xiva xonligida XIX asr oxiri va XX asr boshida 519439 kishi yashagan, uning 488922 kishisi, yaʼni 94,1 % oʻtroq, 30515 kishisi, yaʼni 5,9 % koʻchmanchi holda yashagan»¹, – deb maʼlumot bersalar, V. Lobachevskiy asarida 1910

¹ Гиршфельд В., Галкин М.Н. Военно-статистическое описание Хивинского оазиса. – Ташкент, 1903. Часть II. – С. 1, 27, 111, 114.

yilda Xiva xonligida 646044 kishi (107600 xo‘jalik) yashagan. Uning 397000 nafari (61,4 %) – o‘zbeklar va sartlar, 184200 nafari (24,4 %) – turkmanlardan, 34200 nafari (5,3 %) – qoraqalpoqlardan, 23000 nafari (3,5 %) – qozoqlardan iborat. Shuningdek arablar, tatarlar, forslar, ruslar va boshqa millat vakillari istiqomat qilishi qayd qilingan². Bu ma’lumotlardan rus mualliflarining xonlik aholisi sonini statistik jihatdan o‘rganganligini bilish bilan birga, xonlikda o‘zbeklardan tashqari boshqa millat vakillari ham ko‘pchilikni tashkil qilgani ma’lum bo‘ladi.

XIX asrning 50-yillaridan boshlab, ingliz-rus raqobatining oshgani sayin Yevropa va Amerika diplomatlari va sayyohlarining e’tibori Xiva va Buxoroga qaratilgan, natijada xorijlik mualliflar tomonidan ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlar qamrovi keng bo‘lib, asosan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli yoritilgan. XIX asrning ikkinchi yarmida xorijliklar Xiva xonligidagi qulchilik munosabati, qul savdosi ishini ko‘p o‘rganganlar. Jumladan, A. Vamberi xonlikda 80 mingdan ortiqroq qul bo‘lganligi haqida ma’lumot bersa³, ingliz tadqiqotchilari Charls Mervin va Djeyms Abbotlar qullar soni – 42 ming kishi ekanligini, shundan 30 ming nafari – eroniyalar, 12 ming nafari – hirotliklar va qolganlari ruslar ekanligini qayd qilganlar⁴. Bu masala yuzasidan XX asrda M. Xoldsvort ham ma’lumot bergan. uallif 1851-yilda Xivaga sayyohat qilgan Eron elchisi Rizoqulning qullar bayrami haqidagi xotirasini keltiradi: “Ro‘za hayiti ayyomida⁵ Xorazmning yon-atrofi va uzoq-yaqin qishloqlarida qullikda yashab, navkarlik, aravakashlik va dehqonchilik qilayotgan eronliklar va boshqa o‘lkalik asirlar uch kun davomida bandilik ishlaridan qutulib, mamlakatning har burchagidan Xivaga keladilar va shaharni tomosha qilib, hordiq chiqaradilar...”⁶.

XX asr 50 yillari ikkinchi yarmida yaratilgan asarlar tahlil etilsa, ular orasida Xiva xonligi tarixi masalalari M.Xoldsvortning ”Turkiston XIX asrda” asarida nisbatan kengroq yoritilganligining guvohi bo‘lamiz. Muallif Xiva xonligi siyosiy tarixi, ma’muriy tuzilishi, yer egaligi, iqtisodiy rivojlanishi, Rossiyaning xonlikni zabt etishi va Rossiya zabt etgandan keyingi xonlik holati kabi masalalarni yoritib berar ekan, xorijlik olim R. Pirs⁷ asarlaridan foydalanganligini, shuningdek Markaziy Davlat Tarix arxivi, Markaziy Davlat Harbiy Tarix arxivi, Rossiya tashqi ishlar ministrligi arxivi, O‘zbekiston Markaziy Davlat arxivi materiallaridan foydalanganligini e’tirof etadi. U 1937 yilda tashkil etilgan Xiva xonlari arxividan ham foydalanganligini yozib, o‘z asariga Osiyo bo‘limi ba’zi boshliqlari biografiyasini, Tashqi Ishlar bo‘limi boshliqlarini, Turkiston general gubernatorligi Orenburg bo‘limi boshliqlari haqidagi ma’lumotlarni ilova qiladi. M. Xoldsvort manba sifatida rus tarixchilari asarlaridan, oynoma va ro‘znomalardan ham foydalandi. Uning yuqorida nomi qayd etilgan asarida Xiva

² Лобачевский В. Военно-статистическое описание Туркестанского военного округа. Хивинский район. – Ташкент: ТуркВО, 1912. – С. 66.

³ Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – М., 1867. – С. 200-201

⁴ MarvinCh. TheRussianadvancetowardsIndia, Conversation with Skobeleff. – London, 1882; Reconnoitring Central Asia: Pionering adventures in the regions lying between Russia and India. –London, 1884. – P. 13;

Abbot J. Narrative of Journey from Heraut to Khiva, Moscow and St-Petersbourg during the Late Russian Inavasion of Khiva, vol.1. – London, 1884. – P. 24.

⁵ 1851 yilning 6 avgust kuniga to‘g‘ri keladi.

⁶ Holdeworth M. Turkestan in the nineteenth century: A brief history of the khanates of Bukhara, Kokand and Khiva. – London: Oxford, 1959. – P. 21.

⁷ Pierre R. Russian Central Asia. 1867-1917.- Berkeley and Los Angelos, 1960.- P.359.

xonligining XIX asrdagi tarixiga asosiy e'tibor qaratiladi. Asarda Xiva xonligi tashkil etilganidan to XIX asrgacha bo'lgan davri tarixi haqida deyarli hech narsa yozilmagan. M.Xoldsvort Xiva xonligi aholisi haqida to'xtalib, uning umumiy aholisi 700 ming atrofida bo'lganligini, ulardan ma'muriyatni boshqarishni ta'minlagan va hukmdor sinflarni tashkil etgan o'zbeklar 400 ming nafarni tashkil etganligini taxmin qiladi. Shuningdek, "shaharlarda, o'zbeklardan tashqari ayniqsa, bosqinchilik yurishlarida asirga olingan eronlar bilan aralashib ketgan asl voaha aholisi ham mavjud edi"⁸, -deb ta'kidlaydi. M. Xoldsvort "XVI asrning oxirida eski Amudaryo o'z oqimini o'zgartirganligi sababli eski Urganch suv ta'minotini yo'qotadi va Xiva poytaxtga aylanadi"⁹, - deb yozadi.

M.Xoldsvort o'z asarida yana 1851 yilda Xivaga sayohat qilgan Eron elchisi Rizoqulining yo'llar bayramini qanday tasvirlaganiga to'xtalib o'tadi: "Ramazon oyining navbatdagi bayramlari munosabati bilan eronliklar va uy xizmatkorlari, yuk tashuvchilar va ishchilar bo'lib xizmat qilgan qullar, qishloqlarga hamda Xorazmning turli manzilgohlariga tarqaldilar va 3 kunni ozodlikda o'tkazardilar. Ular barcha yerlardan Xivaga kelardilar va o'zlarining vaqtlarini atrofda sayr qilish bilan o'tkazardilar. Ular o'zlarining yurtdoshlari o'zlari kabi baxtsizlikdagi do'stlari bilan uchrashardilar, o'zlarining ahvoli haqida suhbatlashardilar...bir-birlariga ayanchli badarg'alikdagi hayotidan nolirdilar"¹⁰. Haqiqatan ham, xonlikda qullar mavjud bo'lgan bo'lib, bu haqda mahalliy adabiyotlarda ma'lumotlar uchraydi. Masalan, "1851 yilda Xiva xonligiga tashrif buyurgan Eron elchisi Rizoqulixon Hidoyat Lolaboshi (ba'zi adabiyotlarda qizilboshi deb yuritiladi) elchiligi fuqarolarni ozod qilish va Eronga olib ketish, shuningdek, musulmonlarni olib-sotish ya'ni qulchilikni bekor qilishga majbur etish"¹¹ edi.

Shuni ta'kidlash joizki, Xiva xonligida yerlarning katta qismi xon va uning yaqin qarindoshlariga qarashli edi. Bu yerlardan dehqonlarga ijara yerlar ajratilib berilardi. Xiva xonzodalariga qarashli yerlar xususiy mulk bo'lib, ular soliq to'lmas edi. M. Xoldsvort ushbu masala bo'yicha yaratilgan asarlarni tahlil etar ekan, zamonaviy sobiq sho'ro tarixchilari xo'jalik yerlarining yarmi xonga tegishli bo'lib, uning ruxsati bilan yer egalariga berilardi, -deb yozgan"¹² Muallif xonlikdagi vaqf yerlar umumiy sug'oriladigan yerlarning 4 foizini tashkil etardi, degan fikrga keladi. Uning ta'kidlashicha, "yer soliqlari 3 ta farqli ko'rinishda to'planib, yer uchastkasi hajmiga bog'liq edi. Soliqni mahsulot bilan to'lash "diak" o'rniga asta - sekin pul bilan soliq to'lash (salg'ut) kelib chiqdi. XIX asrning so'nggi choragida bir vaqtning o'zida ikkalasi ham mavjud edi"¹³. Haqiqatan ham, mahalliy adabiyotlarda ko'rsatilishicha, Muhammad Rahim xalqning noroziligi yana kuchayib, tug'yon ko'tarishdan qo'rqib, soliq solish tartiblarini o'zgartirishga kiritdi. Xiroj deb atalgan va natura bilan olinadigan eski

⁸ Holdsworth M. Turkestan in the nineteenth century. – Oxford, 1959.-p.21

⁹ O'sha adabiyot.,-P. 21.

¹⁰ Holdsworth M. Turkestan in the nineteenth century. – Oxford, 1959.-P.21.

¹¹ O'sha adabiyot., p.22.

¹² O'sha adabiyot., - P.23.

¹³ O'sha adabiyot., - P.24.



solig “mahsulot solig‘i” tizimi bekor qilindi. Buning o‘rniga solg‘ut deb atalgan pul solig‘i joriy qilindi¹⁴, Xoldsvort yana “...qishloqlarda dehqonlar va hunarmand o‘zlarining mahsulotlarini sotardilar yoki o‘zlarining qo‘shnilariga xizmat qilib, haqini doimo mahsulot bilan yoki ba’zida naqd pul bilan olardilar. Shaharlarda hunarmandlar ustaxonalari tashkil etilgan bo‘lib, u yerda temirchi, teri (po‘st) va charmni ishlovchilar, kulollar, arqon tayyorlovchilar va gilam to‘quvchilar ishlardilar.

¹⁴ Holdsworth M. Turkestan in the nineteenth century. – Oxford, 1959.-p.23-24.